

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI TO'G'RISIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 15-martda qabul qilingan
Senat tomonidan 2018-yil 29-martda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining (bundan buyon matnda Davlat xavfsizlik xizmati deb yuritiladi) faoliyatini tartibga solishdan iborat.

2-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari

Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlashdan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbazarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat.

3-modda. Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlari

Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat xavfsizligi — O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

davlat manfaatlari (O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlari) — jamiyatda qonun ustuvorligini, xavfsizlik va barqarorlikni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta'minlashga bo'lgan davlatning anglanilgan ehtiyojlari;

kontrrazvedka faoliyati — chet davlatlarning, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning, guruhlarning hamda ayrim shaxslarning davlat manfaatlariga va xavfsizligiga zarar yetkazayotgan yoki zarar yetkazishga qodir bo'lgan razvedka, diversiya, qo'poruvchilik va boshqa buzg'unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash hamda unga barham berishga qaratilgan faoliyat;

razvedka faoliyati — chet davlatlarning maxsus xizmatlari, tashkilotlar, guruhlar va ayrim shaxslar keltirib chiqaradigan, davlat manfaatlariga daxl qiladigan, real xavf-xatarlar hamda tahdidlarni aks ettiradigan axborotni qo'lga kiritishga va unga ishlov berishga, shuningdek davlat xavfsizligini ta'minlash hamda davlat manfaatlarini ilgari surishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilishiga ko'maklashishga qaratilgan faoliyat.

5-modda. Davlat xavfsizlik xizmati huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'z faoliyatini maxsus vositalar, shakllar va uslublar bilan amalga oshiradigan maxsus vakolatli davlat organidir.

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi va o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib boradi:

O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini va davlat manfaatlari tashqi hamda ichki tahdidlardan himoya qilinishini ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbazarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga bo‘lgan tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo‘yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish;

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga bo‘ladigan xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo‘yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;

terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka, qurol-yarog‘, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;

davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, etnik va diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;

iqtisidiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi xalqining madaniy-tarixiy hamda boy ma’naviy merosini himoya qilish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlariga hamda xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish;

telekommunikatsiyalar va transport sohasida davlat xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlarga shart-sharoit yaratuvchi omillarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;

tergovi Davlat xavfsizlik xizmati vakolatiga kiritilgan jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni o‘tkazish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 35, 391, 345-moddalari.

davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlarining saqlanishini, maxsus aloqaning xavfsizligini ta’minlash hamda axborotning kriptografik himoyasini tashkil etish ustidan nazorat qilish;

davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbazarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

Davlat xavfsizlik xizmatining jangovarlik va safarbarlik shayligi holatini takomillashtirish hamda saqlab turish, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va harbiy holat joriy qilinganda kuch va vositalarni harakatlarga tayyorlash.

6-modda. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplari

Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, fuqarolarning yordamiga tayanish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi ustuvorligi, yagonalik, mustaqillik, konspiratsiyadan iboratdir.

7-modda. Qonuniylik prinsipi

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi**, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga og‘ishmay rioya etishi hamda ularni bajarishi shart.

Qonunlarning talablarini aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chetga chiqish ularning sabablari qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, qonuniylikni buzishdir va u belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

8-modda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish prinsipi

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari o‘z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish asosida amalga oshiradi.

Davlat xavfsizlik xizmati fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlaydi.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari fuqaroning shaxsiy hayotiga taalluqli bo‘lgan, uning sha‘ni, qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazadigan ma‘lumotlarni, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, oshkor qilish huquqiga ega emas.

9-modda. Fuqarolarning yordamiga tayanish prinsipi

Davlat xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatida aholi bilan yaqin aloqada bo‘ladi va fuqarolarning yordamiga tayanadi.

10-modda. Huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi ustuvorligi prinsipi

Huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi, ularga imkon yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish Davlat xavfsizlik xizmatining jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir faoliyatidagi ustuvorliklardir.

11-modda. Yagonalik prinsipi

Davlat xavfsizlik xizmati Davlat xavfsizlik xizmati raisi rahbarlik qiladigan yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil etadi.

Davlat xavfsizlik xizmati raisi o‘z faoliyatini amalga oshirishda bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi.

12-modda. Mustaqillik prinsipi

Davlat xavfsizlik xizmati o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslardan qat’i nazar, faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshiradi.

Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatiga davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning va mansabdor shaxslarning aralashuvi taqiqlanadi.

13-modda. Konspiratsiya prinsipi

Davlat xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatini konspiratsiya prinsipi asosida, ya’ni o‘z faoliyatining, tezkor-xizmat axborotini olish, rasmiylashtirish, saqlash va undan foydalanishning alohida tartibini, shuningdek tezkor-xizmat hujjatlari bilan ishslash qoidalalarini belgilagan holda amalga oshiradi.

14-modda. Fan yutuqlaridan, zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanish

Davlat xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatida fan yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlanmalar, shuningdek axborot tizimlaridan foydalanadi.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari ushbu xizmatning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda texnik vositalardan, shu jumladan audio-, foto- va video qayd etish, kriptografiya vositalaridan hamda boshqa maxsus vositalardan foydalanishi mumkin.

2-bob. Davlat xavfsizlik xizmati

15-modda. Davlat xavfsizlik xizmati tizimi

Davlat xavfsizlik xizmati tizimi Davlat xavfsizlik xizmatining markaziy devoni, Davlat xavfsizlik xizmatining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, ularning tumanlar (shaharlar) bo‘yicha bo‘limlari (bo‘linmalari), Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo‘shinlari va Davlat xavfsizlik xizmatining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa organlardan iborat bo‘ladi.

16-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining mansabdor shaxslarini tayinlash va lavozimidan ozod etish

Davlat xavfsizlik xizmatiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan rais boshchilik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadi.

LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasi birinchi qismining 7) bandi, 93-moddasi birinchi qismining 24) bandi.

Davlat xavfsizlik xizmati raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o'rinnbosarlar bo'ladi.

17-modda. Davlat xavfsizlik xizmati hay'ati

Davlat xavfsizlik xizmatida Davlat xavfsizlik xizmati raisi, uning o'rinnbosarları, markaziy devoni bo'linmalarining va Davlat xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat xavfsizlik xizmati hay'ati maslahat organi bo'lib, u davlat xavfsizligining ta'minlanish holatiga, konun hujjatlari, Davlat xavfsizlik xizmati raisining buyruqlari va ko'rsatmalarini ijro etishga, kadrlarni tanlashga, joy-joyiga qo'yishga taalluqli masalalarni hamda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni ko'rib chiqadi.

Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo'shinlarida Harbiy kengash tuziladi, uning tarkibi va faoliyatining tartibi Davlat xavfsizlik xizmati raisi tomonidan belgilanadi.

18-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining bo'ysunishi va hisobdorligi

Davlat xavfsizlik xizmati bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va unga hisobdordir.

Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasini o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlari yuzasidan muntazam ravishda xabardor qiladi.

19-modda. Davlat xavfsizlik xizmati organlari faoliyatining samaradorligini baholash

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati Davlat xavfsizlik xizmati organlari faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonidir.

20-modda. Davlat xavfsizlik xizmati huzuridagi jamoatchilik kengashi

Davlat xavfsizlik xizmati huzuridagi jamoatchilik kengashi maslahatlashuv-kengashuv vazifalarini va boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Davlat xavfsizlik xizmati huzuridagi jamoatchilik kengashining shaxsiy tarkibi, asosiy vazifalari, vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

3-bob. Davlat xavfsizlik xizmatining davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek fuqarolar bilan hamkorligi

21-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorligi

Davlat xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamkorlik qiladi.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar Davlat xavfsizlik xizmatiga davlat xavfsizligini ta'minlashga doir vazifalarni bajarishda o'z vakolatlari doirasida ko'maklashishi shart.

22-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining qonuniy talablarini bajarishning majburiyiligi

Davlat xavfsizlik xizmatining qonuniy talablar, shu jumladan qonunga rioya etish, hujjatlarni, tekshiruv materiallarini va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, mutaxassislar ajratish, huquqbazarliklar faktlari bo'yicha kelish hamda tushuntirishlar berish, huquqbazarliklarga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish haqidagi talablari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiyidir.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlar bepul taqdim etiladi.

Davlat xavfsizlik xizmatining qonuniy talablari ustidan shikoyat qilinishi ularning bajarilishini to‘xtatib turmaydi.

4-bob. Davlat xavfsizlik xizmatining huquq va majburiyatları

23-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining huquqlari

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

mansabdar shaxslar va fuqarolarning hujjatlarini, shu jumladan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish, ularni shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish, ashylarni, transport vositalarini hamda tashilayotgan yuklarni ko‘zdan kechirish, bunda nazoratning texnik va boshqa vositalari qo‘llanilishi mumkin;

mansabdar shaxslar va fuqarolardan tezkor-qidiruv, qidiruv hamda boshqa tadbirdar, tergovga qadar tekshirishlar va tergov harakatlari o‘tkaziladigan joylarni tark etishni talab qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning turar joylariga va boshqa obyektlariga to‘sqiniksiz kirish, zarurat bo‘lganda qulflash moslamalari va boshqa ashylarni buzgan holda kirish, bu joylarni jinoyatlar sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslar ta’qib qilinayotganda yoxud u yerda jinoyat sodir etilayapti yoki sodir etilgan yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlardan yashiringan shaxs bor deb hisoblash uchun yetarli asoslar mayjud bo‘lganda yoxud kechiktirish fuqarolar hayoti va sog‘lig‘ini xavf ostida qoldiradigan bo‘lsa, yigirma to‘rt soat ichida prokurorga bu haqda xabar bergan holda, shuningdek yetkazilgan zararning o‘rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplagan holda ko‘zdan kechirish;

jinoyatlarning oldini olish, ularni sodir etgan yoki qidiruvda bo‘lgan shaxslarni topish va ushslash maqsadida jismoniy hamda yuridik shaxslarning turar joylarida va boshqa obyektlarida ularning roziligi bilan vaqtincha bo‘lish;

davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga kirish, zarur bo‘lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, fuqarolardan ma’lumotlarni hamda boshqa zarur hujjatlar va materiallarni so‘rash va olish;

Davlat xavfsizlik xizmatining ish yurituvida bo‘lgan ishlar va materiallar yuzasidan fuqarolarni, mansabdar shaxslarni chaqirish, zarur hujjatlarni, ma’lumotlarni va ularning ko‘chirma nusxalarini bepul olish;

fuqarolarni ularning roziligi bilan ko‘maklashishga jalb etish, Davlat xavfsizlik xizmatiga ko‘maklashgan fuqarolarni taqdirlash;

davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga yoki mansabdar shaxslarga huquqbazarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

jinoyatlarning holatlarini aniqlash hamda surishtiruv, dastlabki tergov organlaridan, suddan yashirinib yurgan va jinoiy jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni qidirish, shuningdek jinoyatlarning oldini olish uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ta’sis etilgan omnaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan bepul foydalanish;

litsenziyalashni amalga oshirish va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish chog‘ida litsenziya talablari hamda shartlariga rioya etilganligini tekshirish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash.

Davlat xavfsizlik xizmati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Davlat xavfsizlik xizmati raisi davlat xavfsizligiga tahdid yuzaga kelgan hollarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi majlisini chaqirish to‘g‘risidagi taklif bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etishga haqli.

24-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining majburiyatları

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda:

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini va boshqa davlat manfaatlarini tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalash,

fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rishi;

Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplariga og'ishmay rioya etilishini ta'minlashi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini davlat xavfsizligiga tahdidlar haqida xabardor qilishi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasining qo'riqlanishi va himoya qilinishini ta'minlashi;

davlat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etishi;

davlat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat organlarining va tashkilotlarning axborot-tahlil bo'linmalari bilan hamkorlikni va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshirishi;

davlat organlarida va tashkilotlarda maxfiylik rejimini ta'minlash ustidan nazoratni tashkil etishi;

davlat xavfsizligini ta'minlash muammolari yuzasidan ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyatni amalga oshirishi;

jinoyatlar va huquqbazarliklar to'g'risidagi murojaatlar hamda ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazishi, ular yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vaqtida choralar ko'rishi;

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning turar joylariga hamda boshqa obyektlariga mulkdorlarning va ular vakillarining roziligidan yoki ular yo'qligida kirilganligiga doir barcha hollar to'g'risida prokuorni yigirma to'rt soat ichida yozma shaklda xabardor qilishi;

huquqbazarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga imkon yaratgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rishi;

o'z xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishi shart.

Davlat xavfsizlik xizmatining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

5-bob. Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini tomonidan jismoniy kuch ishlatalish, maxsus kuch va vositalarni, o'qotar qurolni qo'llash, ular tomonidan tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish.

25-modda. Jismoniy kuch ishlatalish, maxsus vositalarni hamda o'qotar qurolni qo'llash shartlari va chegaralari

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini o'ziga biriktirilgan o'qotar qurol va maxsus vositalarni xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida olib yurish, saqlash, jismoniy kuch ishlatalish, maxsus vositalarni hamda o'qotar qurolni qo'llash huquqiga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda ega bo'ladi.

Jismoniy kuch ishlatalishi, maxsus vositalar va o'qotar qurol qo'llanilishidan avval ularni qo'llash niyati to'g'risida aniq ifodalangan ogohlantirish bo'lishi kerak, bundan ushbu ogohlantirishning imkoni bo'limgan yoki ularning qo'llanilishidagi sustkashlik fuqarolarning va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining hayoti hamda sog'lig'iga bevosita xavf soladigan va boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

Jismoniy kuch ishlatalishi, maxsus vositalar yoki o'qotar qurol qo'llanilishi yuzaga kelgan vaziyatga, shaxslar xatti-harakatlarining xususiyatiga va xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Bunda Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi har qanday zararning imkon qadar kam bo'lishiga intilishi shart.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi, agar yuzaga kelgan vaziyatda maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash uchun mazkur moddada hamda ushbu Qonunning [27](#) va [28-moddalarida](#) nazarda tutilgan asoslar yuzaga kelishi mumkin deb hisoblasa, maxsus vositalarni yoki o'qotar qurolni qo'llash uchun tayyorlash va jangovar holatga keltirish huquqiga ega.

Jismoniy kuch ishlatalganligi, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurol qo‘llanilganligi natijasida tan jarohati olgan fuqarolarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatilishi yoki tashkil etilishi kerak.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi jismoniy kuch ishlatalgan, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilgan har bir holat to‘g‘risida bevosita boshlig‘iga darhol axborot berishi shart.

Davlat xavfsizlik xizmatining organi jismoniy kuch ishlatalganligi va maxsus vositalar qo‘llanilganligi natijasida jismoniy yoxud yuridik shaxslarning hayotiga, sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga zarar yetkazilgan har bir holat haqida, shuningdek o‘qotar qurol qo‘llanilgan barcha hollar to‘g‘risida tegishli prokurorga darhol xabar beradi.

26-modda. Jismoniy kuch ishlatalish

Agar kuch ishlatilmaydigan usullar Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlamasa, ular quyidagi hollarda shaxsan o‘zi yoki bo‘linma (guruh) tarkibida jismoniy kuch ishlatalish, shu jumladan kurashning jang usullarini qo‘llash huquqiga ega bo‘ladi:

jinoyatlarga va boshqa huquqbazarliklarga barham berishda;

jinoyatlar yoki boshqa huquqbazarliklar sodir etgan shaxslarni olib borish va ushlab turishda;

Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchisining qonuniy talablariga qarshilik ko‘rsatilishini bartaraf etishda.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari ushbu Qonunda maxsus vositalar yoki o‘qotar qurol qo‘llanilishiga ruxsat etilgan hollarda ham jismoniy kuch ishlatalish huquqiga ega.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko‘rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko‘rinib turgan yoki ma‘lum bo‘lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatalish taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko‘rsatganligi, fuqarolarning yoxud Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining hayoti va sog‘lig‘iga haqiqatda tahdid etib, hujum qilganligi hollari mustasno.

27-modda. Maxsus vositalarni qo‘llash

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari quyidagi maxsus vositalarni:

a) rezina tayoqlarni, shikastlantiruvchi qurolni, qo‘lkishanlarni yoki boshqa bog‘lash vositalarini, elektroshok qurilmalarini, xizmat hayvonlarini quyidagi hollarda:

fuqaroga yoki Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisiga qilingan hujumni qaytarishda;

jinoyatga barham berishda;

Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchisiga qarshilik ko‘rsatilishiga barham berishda;

jinoyatni sodir etish chog‘ida ko‘rib qolangan yoki uni sodir etganidan keyin darhol yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda;

qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushlashda;

zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

muhofaza qilinadigan obyektlarni himoya qilishda;

g‘ayrihuquqiy harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sishda;

b) maxsus bo‘yovchi va markirovka qiluvchi vositalar, muhofaza qilinadigan obyektlarni (hududlarni) himoya qilish hamda g‘ayrihuquqiy harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sishda vositalarini quyidagi hollarda:

muhofaza qilinadigan obyektlarni himoya qilishda;

g‘ayrihuquqiy harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruuhlarining harakatlanishini to‘sishda;

v) chalg‘itma ta’sir ko‘rsatuvchi nur-tovush moslamalarini quyidagi hollarda:

zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

muhofaza qilinadigan obyektlarni himoya qilishda;
g‘ayrihuquqiy harakatlar sodir etayotgan fuqarolar guruhlarining harakatlanishini to‘sishda;

g) zirhli mashinalar va katyerlarni quyidagi hollarda:

qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsni ushlashda;

zo‘rlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilishni ta’minlashda qo‘llash huquqiga ega.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilar ushbu Qonunda o‘qotar qurolni qo‘llashga ruxsat etilgan barcha hollarda maxsus vositalarni qo‘llash huquqiga ega.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko‘rinib turgan shaxslarga va yoshi aniq ko‘rinib turgan yoki ma’lum bo‘lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan maxsus vositalarni, shu jumladan shikastlantiruvchi qurolni qo‘llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko‘rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining hayoti va sog‘lig‘iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo‘lib hujum qilganligi hollari mustasno.

Odamning boshiga, bo‘yniga, o‘mrov suyagiga, qorniga, jinsiy a’zolariga, yurak sohasiga rezina tayoq bilan zARBalar berish taqiqlanadi, bundan odam qurolli qarshilik ko‘rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining hayoti va sog‘lig‘iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo‘lib hujum qilganligi hollari mustasno.

Davlat xavfsizlik xizmati ta’minotida bo‘ladigan maxsus vositalarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

28-modda. O‘qotar qurolni qo‘llash

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilar quyidagi hollarda o‘qotar qurolni qo‘llash huquqiga ega:

hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan, zo‘rlik ishlatish bilan qilingan hujumdan fuqarolarni yoxud o‘zini himoya qilishda;

garovdagilarni ozod qilishda;

o‘ta og‘ir jinoyatni sodir etish chog‘ida ko‘rib qoltingan va yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda, agar boshqa vositalar bilan bu shaxsni ushlash imkon bo‘lmasa;

o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni, portlovchi moddalarni, transport vositasini, maxsus va jangovar texnikani egallab olishga bo‘lgan urinishlarga chek qo‘yishda;

fuqarolarning uy-joylariga, qo‘riqlanadigan obyektlarga, yuklarga, transport vositalariga va binolarga guruh bo‘lib qilingan hujumni yoki qurolli hujumni qaytarishda;

qurolli qarshilik ko‘rsatayotgan shaxsni, shuningdek o‘zidagi qurolni, o‘q-dorilarni, portlovchi moddalarni, portlatish qurilmalarini, zaharli yoki radioaktiv moddalarni topshirish to‘g‘risidagi qonuniy talabni bajarishni rad etayotgan shaxsni ushlashda;

jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxslarning, o‘ziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyoj chorasi qo‘llanilgan shaxslarning qamoqdan qochib ketishiga chek qo‘yishda, shuningdek bu shaxslarni zo‘ravonlik bilan ozod qilishga bo‘lgan urinishlarga chek qo‘yishda;

qurolli ishlatish niyati haqida ogohlantirish zarurati tug‘ilganda, shuningdek yuqoriga qarata yoki boshqa xavfsiz yo‘nalishda o‘q otish orqali xavf-xatar signali berishda yoki yordam chaqirishda.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi o‘qotar qurolni qo‘llashdan oldin ogohlantirishi shart, bundan uning hayotiga yoki fuqarolarning hayotiga bevosita xavf tahdid solayotgan hollar mustasno.

Ayollarga, nogironlik belgilari ko‘rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko‘rinib turgan yoki ma’lum bo‘lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan o‘qotar qurolni qo‘llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli hujum qilganligi, qurolli qarshilik ko‘rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud Davlat

xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining hayoti va sog‘lig‘iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo‘lib hujum qilganligi hollari mustasno.

Agar o‘qotar qurol qo‘llanilishi natijasida tasodifiy shaxslar jabrlanishi mumkin bo‘lsa, Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari ko‘p fuqarolar to‘planganda uni qo‘llash huquqiga ega emas, bundan terrorchilik harakatining oldini olish, garovdagilarni ozod qilish, qurolli hujumni qaytarish hollari mustasno.

Davlat xavfsizlik xizmati qurollantiriladigan o‘qotar qurol va uning o‘q-dorilari turlarining ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

29-modda. Maxsus kuchlarni qo‘llash

Davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyatlarning o‘z vaqtida oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish bo‘yicha maxsus operatsiyalarni o‘tkazish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmatining va boshqa davlat organlarining tezkor tadbirlar ko‘rvuchi maxsus guruhlari jalb etilishi mumkin.

Davlat xavfsizlik xizmatining tezkor tadbirlar ko‘rvuchi maxsus guruhlari ruhan bardoshli, yuksak axloq-iroda xislatlariga, maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining maxsus jangovar bo‘linmalaridagi xizmatga yaroqli shaxslar orasidan tuziladi.

30-modda. Davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish

Davlat xavfsizlik xizmati shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni tibbiyot muassasalariga yetkazish, jinoyat sodir etgan shaxslarni ta’qib qilish va Davlat xavfsizlik xizmati organlariga olib borish, hodisa joyiga yetib olish uchun davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning va fuqarolarning transport vositalaridan, bundan chet davlatlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalariga, xalqaro tashkilotlarga tegishli transport vositalari hamda maxsus mo‘ljallangan transport vositalari mustasno, majburiy tartibda foydalanishi mumkin bo‘lib, bunda transport vositasidan foydalanilganligi faktini tasdiqlovchi va undan foydalangan Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisini identifikatsiyalovchi hujjat beriladi.

Transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanish natijasida yetkazilgan mulkiy zararning o‘rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan qoplanadi.

6-bob. Davlat xavfsizlik xizmatiga ko‘maklashish

31-modda. Davlat xavfsizlik xizmatiga ko‘maklashuvchi shaxslar

Davlat xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda ayrim shaxslarni oshkora va nooshkora asosda, shu jumladan shtatdan tashqari xodimlar sifatida ko‘maklashishga jalb etishi mumkin.

Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan ko‘maklashishga jalb etilgan shaxslarning huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan.

32-modda. Davlat xavfsizlik xizmatiga ko‘maklashuvchi shaxslarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi, ularning xavfsizligini ta’minalash

Davlat xavfsizlik xizmatiga ko‘maklashayotgan shaxslarga munosabatlarning maxfiyligi kafolatlanadi. Davlat xavfsizlik xizmatiga maxfiylik asosida ko‘maklashayotgan (ko‘maklashgan) shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat sirini tashkil etadi va oshkor qilinishi mumkin emas.

Davlat xavfsizlik xizmatiga maxfiylik asosida ko‘maklashayotgan (ko‘maklashgan) shaxslarga, shuningdek ularning yaqin qarindoshlariga zo‘rlik ishlatalish yoki mol-mulkini yo‘q qilish bilan haqiqatda tahdid qilinayotganligidan dalolat beruvchi yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda, Davlat xavfsizlik xizmati ularning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, qadr-qimmati va mol-mulkini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko‘rishi shart.

Davlat xavfsizlik xizmatiga maxfiylik asosida ko‘maklashayotgan (ko‘maklashgan) shaxslarga va ularning yaqin qarindoshlariga ularning davlat xavfsizligini ta’minalashdagi ishtiroti tufayli tajovuz qilish qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Davlat xavfsizlik xizmatiga ko‘maklashayotgan (ko‘maklashgan) shaxslarni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

7-bob. Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini, ularning huquqiy holati va ijtimoiy-huquqiy himoyasi

33-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini haqiqiy harbiy xizmatda bo‘ladi.

Davlat xavfsizlik xizmatida xizmatni o‘tash tartibi umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini bilan tartibga solinadi, bundan Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini bajarayotgan majburiyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno.

Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarini xizmatni o‘tash davrida siyosiy partiyalar a’zolari bo‘la olmaydi. Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga nisbatan umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa cheklar ham tatbiq etiladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi 436-II-son “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni.

Kuchaytirilgan rejimni joriy etish va bekor qilish, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini jangovar harakatlarda ishtirok etishga jalb etish Davlat xavfsizlik xizmati raisining buyruqlari asosida amalga oshiriladi. Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo‘sishnarda kuchaytirilgan rejimni joriy etish va bekor qilish tartibi qonun hujjatlarini, shu jumladan Davlat xavfsizlik xizmatining ichki idoraviy hujjatlarini bilan belgilanadi.

Fuqarolarni Davlat xavfsizlik xizmatiga qabul qilish, ularni lavozimga tayinlash, mansabini ko‘tarish va boshqa lavozimga o‘tkazish ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat’i nazar amalga oshiriladi. Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga nisbatan maxsus talablar Davlat xavfsizlik xizmati raisi tomonidan belgilanadi.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga belgilangan namunadagi xizmat guvohnomasi berilib, undan foydalanish tartibi Davlat xavfsizlik xizmatining ichki idoraviy hujjatlarini bilan tartibga solinadi.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan namunadagi formali kiyim-boshga ega bo‘ladi.

Davlat xavfsizligini ta’minalash vazifalarini hal etish uchun Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini harakatdagagi rezervda harbiy xizmatda qoldirilgan holda davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vaqtincha xizmat safariga yuborilishi mumkin.

Davlat xavfsizlik xizmati mansabdor shaxslarining lavozim majburiyatlarini, o‘zlariga bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilariga nisbatan rag‘batlantirish choralarini va intizomiy jazo choralarini qo‘llash, harbiy unvonlar berish, harbiy xizmatchilarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish tartibini tasdiqlashga doir vakolatlari Davlat xavfsizlik xizmatining raisi tomonidan belgilanadi.

34-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Davlat xavfsizlik xizmatiga qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari belgilangan tartibda maxsus kasbiy tayyorgarlikdan yoki qayta tayyorgarlikdan yoxud malaka oshirishdan o‘tadi.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish Davlat xavfsizlik xizmatining ta’lim muassasalari va boshqa ta’lim muassasalari, shu jumladan xorijiy ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

35-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilishni davlat mehnatga munosib haq to‘lash, ularning va oila a’zolarining sog‘lig‘ini saqlash, uy-joy va yer uchastkalari bilan ta’minalash, imtiyozli uzoq muddatli ipoteka va transport kreditlari berish, sog‘lig‘i va mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, davlat pensiya ta’minoti, davlat sug‘urtasi, ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ijtimoiy himoyaning boshqa turlari orqali kafolatlaydi.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish choralarini hamda ularga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni amalga oshirish tartibi umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini tomonidan xizmat majburiyatlarining vijdonan bajarilishi va ular erishgan ijobiy natijalar ma’naviy va moddiy rag‘batlantirishlar bilan taqdirlanishi mumkin.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini xizmat faoliyatida ko‘rsatgan mardligi va jasorati hamda O‘zbekiston Respublikasi oldidagi boshqa xizmatlari uchun Davlat xavfsizlik xizmati raisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

Davlat xavfsizlik xizmatining raisi Davlat xavfsizlik xizmatining xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida tan jarohati olgan harbiy xizmatchilariga, halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarining oilalariga, shuningdek boshqa hollarda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda va miqdorlarda bir marotabalik nafaqalar tayinlashga, boshqa turdag'i ijtimoiy yordam ko‘rsatishga haqli.

Davlat xavfsizlik xizmatining tezkor tadbirlar ko‘rvuchi maxsus guruhlari harbiy xizmatchilariga pensiyalar tayinlash uchun belgilangan xizmat muddatiga xizmatning bir kuni ikki kunga, jangovar harakatlarda yoki terrorchilikka qarshi operatsiyalar o‘tkazishda ishtiroy etgan vaqtida esa xizmatning bir kuni uch kunga tenglashtirib hisoblanib qo‘shiladi.

Davlat xavfsizlik xizmatining tezkor tadbirlar ko‘rvuchi maxsus guruhlari harbiy xizmatchilarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish tizimi qonun hujjatlarida belgilanadi.

36-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini huquqiy himoya qilish kafolatlari

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini davlat himoyasidadir.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida faqat bevosita yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri boshlig‘iga bo‘ysunadi.

Qonun bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri vakolat berilgan shaxslardan tashqari hech kim Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchisining qonuniy faoliyatiga aralashishga, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisini qonun bilan Davlat xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklatilmagan majburiyatlarni bajarishga majburlash huquqiga ega emas.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi o‘z ish yurituvida bo‘lgan ishlari va materiallarning mohiyati haqida biror-bir tushuntirish berishga, shuningdek bunday ishlari hamda materiallarni, shu jumladan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari daxldor ishlari hamda materiallarni tanishib chiqish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan va tartibdan boshqacha tarzda taqdim etishga majbur emas.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi o‘ziga nisbatan qabul qilinayotgan qaror va harakat (harakatsizlik) yuzasidan Davlat xavfsizlik xizmatining yuqori turuvchi mansabdir shaxsiga belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

37-modda. Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining daxlsizlik kafolatlari

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini xizmatni o‘tash vaqtida daxlsizlikka ega bo‘ladi.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi tegishinchada Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahar prokurorining roziligesiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Oldingi tahririga qarang.

(37-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-597-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son)

38-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini ishga joylashtirish kafolatlari

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilar harbiy xizmatdan bo‘shatilgan taqdirda ularga harbiy xizmatga qabul qilinguniga qadar egallab turgan avvalgi ish o‘rni (lavozimi) beriladi, avvalgi ish o‘rni mavjud bo‘lmaganda esa davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda ularning mutaxassisligi hisobga olingan holda boshqa teng ish (lavozim) birinchi navbatda beriladi.

8-bob. Davlat xavfsizlik xizmatining axborot, moliyaviy va moddiy-texnika ta’minoti

39-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining axborot ta’minoti

Davlat xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun maxsus hisobga olishlarni shakllantirishi va ulardan foydalanishi, axborot bazalarini va kriptografik himoya vositalarini ishlab chiqishi, yaratishi hamda ulardan foydalanishi mumkin.

Idoraviy xizmat axborotini hisobga olish va undan foydalanish tartibi Davlat xavfsizlik xizmatining ichki idoraviy hujjatlari bilan belgilanadi.

40-modda. Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni himoya qilish

Davlat xavfsizlik xizmatiga harbiy xizmatga (ishga) qabul qilinayotgan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanishiga ijozat beriladigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat sirlarini tashkil etuvchi ma’lumotlardan foydalanishga ijozatni rasmiylashtirish tartib-taomilidan o‘tadi.

Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi, davlat sirlarini tashkil etuvchi ma’lumotlardan foydalanishiga ijozat berilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ularni oshkor etganlik uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi.

LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 162-moddasi.

Davlat xavfsizlik xizmatining hujjatlari va materiallari Davlat xavfsizlik xizmatining arxivlarida saqlanishi lozim. Tarixiy va ilmiy qimmatga ega bo‘lgan arxiv materiallari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat arxivlariga topshirilishi mumkin.

41-modda. Moliyaviy va moddiy-texnika ta’minoti

Davlat xavfsizlik xizmatining moliyaviy va moddiy-texnika ta’minoti O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqilangan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat xavfsizlik xizmatida budjetdan tashqari jamg‘armalar tuziladi, ularni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

42-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining ramzlari

Davlat xavfsizlik xizmati bayroqqa, emblemaga, vimpelga va boshqa ramzlarga ega bo‘lishi mumkin.

Davlat xavfsizlik xizmatining ramzlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

43-modda. Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining javobgarligi

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilar g‘ayriqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi, shuningdek xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining g‘ayriqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi tufayli jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni Davlat xavfsizlik

xizmati tomonidan budjetdan tashqari maxsus jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanadi va ushbu summa keyinchalik aybdor shaxslardan undirib olinadi.

Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchisi xizmat intizomini buzganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy ustavlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

44-modda. Davlat xavfsizlik xizmatining faoliyatida qonunlarga riosa etilishi ustidan nazorat

Davlat xavfsizlik xizmatining faoliyatida qonunlarning aniq hamda bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Prokurorlar Davlat xavfsizlik xizmatining tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida o‘ziga taqdim etilgan hujjatlar va materiallarda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlaydi.

45-modda. Xalqaro hamkorlik

Chet davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari va boshqa tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar hamda ularning vakolatxonalari bilan Davlat xavfsizlik xizmatining hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

46-modda. Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

47-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsing;

ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

48-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 5-aprel,
O‘RQ-471-son